

FURQATSHUNOSLIK TAKOMILIDA NURBOY JABBOROV TADQIQOTLARINING O'RNI

Zebo Qobilova,

Qo'qon universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori,
filologiya fanlari doktori, professori,

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborovning Furqat hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlari xususida so'z yuritilgan. Olim tadqiqotlarining adabiyotshunoslikdagi ahamiyati tahlil qilinib, sohaga oid boshqa tadqiqotlardan farqli jihatlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: an'ana, izdoshlik, salaflar, novatorlik, poetik mazmun, matn, ramz, tatabbu.

Annotation: This article talks about the researches devoted to the life and work of Furqat by the literary scholar, doctor of philology, professor Nurboy Jabbarov. The significance of the scientist's research in literary studies is analyzed and its differences from other researches in the field are shown.

Key words: tradition, followership, predecessors, innovation, poetic content, text, symbol, tatabbu.

Qo'qon adabiy muhitining eng yorqin iste'dod egalaridan biri, "milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi, shoir va adib, adabiyotshunos va mutarjim, muarrix va etnograf sifatida o'zidan boy meros qoldirgan, xattotlik va jurnalistik faoliyati bilan milliy ma'naviyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan, zamonasining mashhur tabib-hakimlaridan biri sifatida el dardiga malham bo'lgan serqirra iste'dod sohibi Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat ijodiyoti" [1: 3] adabiyotshunoslikning doimiy diqqat markazida bo'lib keldi. Furqatshunoslikka muhim ulush qo'shgan olimlardan biri, shubhasiz, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborovdir.

Olimning Zokirjon Furqat ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlari milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotini o'rganishda salmoqli o'rin tutadi. U ilmiy ijod olamiga Furqat ijodining tadqiqotchisi va targ'ibotchisi sifatida kirib keldi va o'zbek adabiyotshunosligida shoir ijodining mohir bilimdoni sifatida tanildi. Olim 1994-yilda "Furqat asarlarining qo'lyozma manbalari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 2004-yilda "Furqatning xoriydagi hayoti va ijodiy merosi: manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. 2021-yilda esa Furqat she'rlarini "Ishqingda kuyub jono", 2023-yilda "Fasli navbahor o'ldi" nomlari bilan nashr ettirdi.

Olimning Furqat hayoti va ijodi haqida qimmatli mulohazalar bildirilgan "Nurli istiqbol umidi", "Zokirjon Furqat va milliy uyg'onish", "Alisher Navoiy nazmiy an'analarning Furqat she'riyatida yangilanishi tamoyillari" singari maqolalari adabiy va ilmiy jamoatchilikning alohida e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Adabiyotshunoslikda Furqatning vatandan ketish sabablari uzoq vaqtlar muhokamalar markazida bo'lganligi ma'lum. N.Jabborov bu haqdagi G.G'ulomning "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1948-yil 9-iyun sonida: "Bu progressiv shaxsni, albatta, Saidazimboy ham, Sharifxo'ja qozi ham, general Afrelov ham, fon Kaufman ham qabul qilmas edi... Gij-gijlatilgan, haqorat etilgan, behurmat qilingan, nomi beadabga chiqarib qo'yilgan asabiy va o'jar shoir ulardan kuladi, ularga nafratlar yog'diradi. Tarixda shunisi aniqdirki, Furqat otilmoqligi yoki qamalmoqligi turgan gap edi. O'z mudhish taqdirini anglagan shoir qochishga majbur bo'ldi", [2:33],-degan fikriga, H.Rasulovning "Furqat" tarixiy-biografik ocherkidagi qarashlariga [3], professor Sh.Yusupovning: "...birinchidan, Furqat chor tuzumiga oppozitsiyada bo'lgan ilg'or ziyolilar davrasida ekanligi,

ikkinchidan, ehtimol tutilgan yaqin oradagi qo'zg'olonda uning isyonkor kayfiyatdagi boshqa do'stlari bilan birga qatnashish ehtimoli va nihoyat, eng asosiysi, Furqat o'z ulkan ma'rifatparvarlik faoliyati bilan chor hukumatining o'lkada yurgizib turgan mahalliy aholini nodonlikda saqlash siyosatiga butunlay zid yo'l tutganligi o'lka bosh hokimi general-gubernatorning o'zida shoirni uzoq muddatga Turkistondan jo'natib yuborish niyatining tug'ilishiga sabab bo'lgan" [4:91], degan mulohazalariga munosabat bildirar ekan, Furqat ijodi yuzasidan olib borilgan so'nggi tadqiqotlarga va shoirning yangi topilgan dastxat she'rlariga tayanib, Furqatning yurtdan ketishiga sabab qilib quyidagi ikki omilni keltiradi:

1. Furqatning chor Rossiyasi mustamlaka siyosatini ochiqdan-ochiq qoralab asarlar yozganligi.
2. Shoirning Vatan va millat manfaatiga asoslangan ma'rifatparvarlik faoliyati mustamlaka ma'muriyatiga xush kelmaganligi [1:18].

N.Jabborovning ushbu qarashlari shoirning o'z vatanini tark etish sabablari yuzasidan uzoq davrdan buyon davom etib kelayotgan bahs-munozaralarga yakun yasadi.

Olim tadqiqotlarida Furqat taxallusining ma'nolariga ham e'tibor qaratadi. Vatandan ayriliq ma'nosida izohlangan taxallusni "faqat birgina ma'nosiga alohida urg'u berilganligini ta'kidlab [1.117], shoirning "Ahvolot", "Adashganman" radifli muxammas, "Qilmasam bo'lmas" radifli Haziniyga taxmisiga tayanib, shunday yozadi: "Ma'lumki, tasavvuf ta'limoti bo'yicha, inson toki bu foniy dunyoda ekan, Haq taolo visolidan ayriliqda, firoqda yashaydi. Ahli Haqlarning hayotdagi bosh maqsadi – Olloh taoloning jamolini ko'rish. Uning diydoriga vosil bo'lish. Tabiiyki, qodiriya tariqatining vakili sifatida Furqat ham xuddi shu maqsad-muddao bilan yashagan. Demak, Furqat taxallusi xuddi shunday e'tiqod, dunyoqarashdan kelib chiqib tanlangan va Haq taolo vaslidan ayriliq ma'nosini ifodalaydi" [1.118]. Biz ham mazkur fikrni to'la quvvatlaymiz.

Umuman, olimning furqatshunoslik sohasida olib borgan tadqiqotlari shoirning murakkab hayot yo'li va ijodiy faoliyatini tizimli, izchil o'rganishda yangicha tahliliy xulosalarni ilmiy jamotachilikka taqdim etilganligi bilan alohida ajralib turadi. Olimning Furqat mavzusida olib borgan ilmiy izlanishlari Qo'qon adabiy muhiti, umuman, mumtoz adabiyot vakillari ijodini tadqiq etishda fundamental asos vazifasini o'tab kelmoqda.

N.Jabborovning Furqat mavzusi tadqiq etilgan ilmiy izlanishlariga nazar solar ekanmiz, Furqatning Alisher Navoiy an'analarining mohir davomchisi, shuningdek, an'ana bag'rida yangilik qila olgan iste'dod egasi sifatida o'z bahosini olgan shoirligi isbot topganligini ko'ramiz. Olimning "Alisher Navoiy nazmiy an'analarining Furqat she'riyatida yangilanishi tamoyillari" maqolasi mazkur masalaga bag'ishlangan. Olim Navoiy asarlarini millat badiiy-estetik tafakkurining cho'qqisi deb atar ekan, mutaffakkir shoir an'analarini muayyan poetik obraz va ramzlar vositasida takomilga yetkazgan, rivojlantirgan ijodkor sifatida Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatni ko'rsatadi va shoir lirikasida Alisher Navoiy an'analarining munosib davom ettirilishi hamda yangilanishini 4 tamoyil asosida o'rganish mumkinligini asoslaydi:

1. Poetik mazmun yangilanishi.
2. Poetik obraz takomili.
3. Poetik janr yangilanishi.
4. Vaznda tatabbu' qilish.

Olim poetik mazmun yangilanishiga misol sifatida shoir munojot g'azallarini keltiradi. Navoiyning

Ibodatingg'a yangi oy bo'lub xam o'ldi musalliy,
Sipehr atlasidin solibon havog'a musallo.

baytini tahlilga tortar ekan, olim "yangi oy – hilolning Haq taolo ibodati uchun qaddi egik

namozxonga qiyoslangani, tunda yulduzlar bilan ziynatlangan osmonning falak atlasiga hamda havoga solingan joynamozga tashbeh etilishi baytning ham shakl, ham mazmun jihatdan yuksak badiiyatiga dalil” bo'lishini ta'kidlaydi va aAyni shu mazmun Furqatning

Kullu ashyo junbush aylab zikrig'a mashg'uldur,
Vahshiyoni dasht, xaylu-l-bahru murg'oni havo.

baytida yangi poetik obraz va mazmun orqali tasvirlanganiga e'tibor qaratadi. Dashtdagi vahshiy hayvonlar (vahshiyoni dasht), dengizlardagi jonivorlar (xayl ul-bahr), havodagi qushlar (murg'oni havo)ki Yaratganning zikrini bir nafas bo'lsin unutmas ekan, yaralmishlar afzali – Insonning bundan g'ofil bo'lishga haqqi yo'q”, deb yozadi. Bir mazmunni avvalgi shoirlardan tamoman farqli obrazlar yordamida tasvirlashning qiyinligi, bu ijodkordan yuksak mahorat va keng dunyoqarash talab qilishi, Furqat esa bu ishni muvaffaqiyat bilan bajarganligi, hazrat Navoiy g'azalidagi mazmunni maromiga yetkazib rivojlantirilganligi asoslab beriladi.

Olim Furqatning “Rahm aylagil, Xudoyo, bechora, xastalarga,

Ranjuru zoru mahzun, ko'ngli shikastalarga” bayti tarje' qilingan musaddas munojotini tahlil qilar ekan, unda millat dardi kuylanishiga diqqat qaratadi. Alisher Navoiy va Furqat munojotlaridagi farqli jihatlar aniqlanadi. Olimning “Agar Navoiy munojotlarida inson, uning mohiyati, Haq taolo ma'rifati kabi millatidan, irqidan qat'i nazar, barcha uchun, umuminsoniyat uchun birday zarur hisoblangan masalalar tahqiqiga, badiiy talqiniga bag'ishlangan bo'lsa, Furqat munojotlarida bamisoli ko'kdan yerga tushiladi, umuminsoniyat emas, o'zi mansub bo'lmish millat dardi qalamga olinadi. Shoir munojotlarini, ta'bir joiz bo'lsa, o'z kechmishidan uzoqlashayotgan, shu bois siyosiy, moddiy va ma'naviy inqirozga yuz tutgan millatga o'z qilmishlari oqibatini ko'rishi, xulosa chiqarishi uchun tutilgan ko'zgu deb atash mumkin. Bu, o'z navbatida, ozod (hazrat Navoiy) va mustamlaka (Furqat) millat vakillarining Yaratganga iltijosi, munojoti ham farqli bo'lishi to'g'risidagi achchiq xulosaga olib keladi” [5:23] degan teran kuzatuv va talqinlari tahsinga loyiq.

Olim “Munojoti musaddas”ning 1879 yili, “Bo'ldi” radifli muxammas 1885 yili, “Begim” radifli g'azal 1890 yili yozilganligiga e'tibor qaratib, shunday yozadi: “ko'rsatib turibdiki, shoirning mustamlaka siyosatiga bo'lgan munosabati yillar o'tishi bilan ham o'zgarmagan. Faqat istibdodni qoralash ruhi dastlabki asarlarda ochiqroq aks etgan bo'lsa, keyingilarida ko'proq obraz va timsollar zamirida berilgan”. Bu albatta matnga tayanib kelingan xulosalardir.

N.Jabborov Furqatning rus va Yevropa madaniyati targ'ibiga bag'ishlangan manzumalari sho'rolar zamonida hukmron mafkura manfaatlariga moslashtirilib targ'ib etilganligini, shu bois istiqloqlarning dastlabki yillarida ular aks ta'sir berdi: hatto ayrim “mutaxassislar” ushbu manzumalarga “tayanib”, Furqatni chor Rossiyasining maddohi sifatida qoralashga, ayblashga uringanliklari haqida to'xtalar ekan, aslida mohiyat qanday edi?, [1:31] degan savolga javob berib, quyidagilarni yozadi: “Furqat Toshkentda yashar ekan, rus maktab-maorif tizimini ko'rib hayratlandi. O'zimizniki bilan taqqoslab, taraqqiyotdan nechog'lik orqada qolganligimizni angladi. Taraqqiy etgan millatlar darajasiga yetish uchun ta'lim tizimini o'zgartirish, zamon talablari darajasiga ko'tarish lozimligini tushunib yetdi. Telefon, telegraf, gazeta, vistavka, hatto bugun juda oddiy hisoblangan elektr energiyasi kabi o'sha payt uchun yangilik hisoblangan hodisalarning millat hayotiga kirib kelishini xohladi. “Jahon basti kushodi” – jahondagi barcha mushkulotlarni yechish yo'li ilm-ma'rifatda deb bildi”. Bu fikrlar qo'yilgan savolga munosib javob edi.

Olimning furqatshunoslikka doir tadqiqotlarida quyidagi ilmiy yangiliklar va qarashlar ilgari surildi:

“Furqatning xorijga ketish va yurtga qayta olmaslik sabablari yangi dalillar asosida

o'rganildi. Shoirning Rusiya mustabid siyosatiga bo'lgan munosabati manbalar asosida tahlil etildi. Furqat asarlarida ilgari surilgan g'oyalarning XX asr boshidagi jadidchilik harakati namoyandalari faoliyatiga ta'siri masalasi tadqiq etildi; Furqatning diniy-ma'rifiy va tasavvufiy mavzudagi asarlarini yaxlit, atroflicha tahlil etishga, shoir "Hajnoma"si va diniy ma'rifiy mavzudagi boshqa asarlarini bugungi kun talablaridan kelibbchiqib tadqiq qilishga harakat qilindi. Shoir she'rlarida oyat va hadislar talqini masalasiga alohida e'tibor qaratildi; Furqatning xorij safari, har bir mamlakatda bo'lish sanalari, chet ellardagi qizg'in ijodiy faoliyati haqida ma'lumotlar aniqlandi, tahliliy xulosalar berildi; shoirning xorijda yozgan she'rlaridagi obrazlar silsilasi, poetik mahorat masalalari tadqiqi amalga oshirildi; "Qavoidi Chin va umuroti siyosiy" asari XX asr boshlari o'zbek nasrining noyob namunasi sifatida ilk bor mufassal tahlil etildi. Asar matni birinchi marta matbuotda e'lon qilindi; Furqat asarlarining mavjud nashrlaridagi matnlari ilk manbalar bilan muqoyasa etildi. Ularning aksariyati nojoiz qisqartirishlar bilan nashr qilinganligi aniqlandi. Mazkur asarlarning to'la matnlari tiklandi. Ushbu matnlarga tayanib, ularning shoir merosida tutgan o'rni xususida mulohaza yuritildi. Jumladan, "Rus askarlari tarifida" deb nomlanib kelgan asarning nashr nusxasi ilk manba bilan qiyoslanganda asarning asl mohiyatini ifoda etgan muhim misralari tushirib qoldirilganligi aniqlandi. Asarning to'la matni uning rus askarlari madhiga emas, rus-yapon urushining haqiqiy manzarasini ochib berishga bag'ishlanganini ko'rsatishi dalillar asosida isbot etildi. "Rus askarlari ta'rifida" degan nom Furqat tomonidan emas, noshirlar tarafidan qo'yilganligi, bu nom asarning mazmun-mohiyatiga muvofiq kelmasligi xususida bahs yuritildi; Furqat hayoti va ijodiy faoliyatining xorijda – AQSh, Turkiya, Mojariston va Xitoyda o'rganilishi xususida ma'lumotlar aniqlandi. Mazkur tadqiqotlardagi fikrlarga ilmiy munosabat bildirildi. Shoir asarlarining xorijdagi nashrlari qo'lyozma manbalar va mamlakatimizdagi nashrlar bilan muqoyasa etilib, ilmiy tahlil qilindi" [1. 10-11].

Xulosa qilib aytganda, N.Jabborov tadqiqotlari furqatshunoslikka yangicha me'zonlarga tayangan holda xolis qarashlar ifodalangan, shoir asarlari o'zining haqiqiy bahosini olgan teran ilmiy tahlillar va xulosalar sifatida katta hissa bo'lib qo'shildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поетикаси. Филология фанлари доктори илмий даражаси учун ёзилган диссертация. -Т., 2004.
2. Ғ.Ғулом. Унутилмас кишилар тўғрисида. // Қизил Ўзбекистон, 1948 йил 9 июн, №114 (7045).
3. Холид Расул. Фурқат. Танқидий-биографик очерк. -Т.: Бадиий адабиёт, 1959, 91-бет.
4. Ш.Юсупов. Фурқат ва ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг янги босқичи. Филология фанлари доктори илмий даражаси учун ёзилган диссертация, - Т., 1990.
5. Н.Жабборов. "Алишер Навоий назмий анъаналарининг Фурқат шеъриятида янгилиниши тамойиллари". Қўқон адабий муҳити ва Учинчи Ренессанс азвусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. - Қўқон, 2022.